IJTIMOIYLASHUV DAVRIDA O‘QUVCHI YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA RAQAMLI KONTENTLARNING O‘RNI VA ROLI

Qulmatov Norqobil Eshmamatovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali, katta o‘qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23510416

Annotatsiya.*Ushbu maqolada jamiyatning axborotlashuvi va jadal ijtimoiylashuv sharoitida o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda raqamli kontentlardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari hamda zamonaviy ta’lim tizimida mediavositalar, mediakontent va raqamli resurslarning tarbiyaviy ta’sir imkoniyatlari yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiylashuv,o‘quvchi yoshlar, vatanparvarlik tarbiyasi, raqamli kontent, mediata’lim, interaktiv vositalar, pedagogik texnologiyalar.*
Annotatsiya. *V dannoy state osveщayutsya nauchno-metodicheskie osnovы ispolzovaniya sifrovogo kontenta v vospitanii uchaщixsya v duxe patriotizma v usloviyax informatizatsii obuщestva i intensivnoy sotsializatsii, a takje vozmojnosti obrazovatelnogo vliyaniya sredstv massovoy informatsii, mediakontenta i sifrovыx resursov v sovremennoy sisteme obrazovaniya.*
Klyuchevыe slova: sotsializatsiya, studencheskaya molodej, patrioticheskoe vospitanie, sifrovoy kontent, mediaobrazovanie, interaktivnыe instrumentы, pedagogicheskie texnologii.
Annotation. *In this article, the scientific-methodical basis of using digital content in educating students in the spirit of patriotism in the conditions of informationalization of society and intensive socialization, as well as the possibilities of educational influence of media, media content and digital resources in the modern education system are highlighted.*
Key words: *socialization, student youth, patriotic education, digital content, media education, interactive tools, pedagogical technologies.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot jamiyatida yosh avlodni ijtimoiylashtirish jarayoni bevosita raqamli muhit ta’sirida kechmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: «Biz yoshlarimizning ongi va qalbi uchun kurashda yutqazmasligimiz kerak. Buning uchun yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, yoshlarda mediamadaniyat va mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim vazifadir». Bugungi zamonaviy o‘quvchi-yoshlarimiz “axborot avlodi” (Z va Alpha avlod) vakillari bo‘lib, ularning dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan qiziqishlari, kelajakda kim bo‘lsam ekan degan orzu-havaslari ko‘p jihatdan mediamakon orqali shakllanadi. Shu sababli, vatanparvarlik tarbiyasini an’anaviy targ‘ibot usullaridan zamonaviy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan shakllarga ko‘chirish davlatimiz siyosatining bosh maqsadiga, ta’lim sohasida esa barcha ijtimoiy gumanitar fanlar tizimi doirasida, jumladan pedagogika fanining dolzarb masalasiga aylandi.

Asosiy qism: Ijtimoiylashuv va vatanparvarlik tarbiyasining nazariy-metodologik asoslari. Ijtimoiylashuv - bu insonning jamiyatda qabul qilingan qoidalar, qadriyatlar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq uzluksiz

jarayondir. Bu jarayon bolalikdan boshlanib, butun hayot davomida davom etadi. Agar an’anaviy davrda bu jarayon asosan oila, maktab va bevosita muloqot orqali kechgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli muhit ijtimoiylashuvning asosiy “agenti”ga aylanmoqda. Zamonaviy sharoitda ijtimoiylashuv faqat oila, maktab va maxalla ta’siri bilan cheklanib qolmay, balki raqamli muhit (internet va raqamli texnologiyalar orqali shakillangan virtual olam), ommaviy madaniyat (ko‘pchillikga bir vaqtda yetib boradigan madaniyat) va global axborot oqimlari (dunyo bo‘ylab internet, televidenie, radio, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali juda katta miqdordagi axborotning tez va uzluksiz tarqalishi) orqali ham amalga oshadi. Vatanparvarlik -insonning o‘z Vataniga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga bo‘lgan mehri, sadoqati va uni himoya qilishga, rivojlantirishga bo‘lgan ichki e’tiqodi va xatti-harakatidir. Bu shunchaki hissiyot yoki balandparvoz gaplar emas, balki aniq amaliy ishlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy va axloqiy qadriyatdir. Vatanparvarlik quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi: Yurt tinchligi va xavfsizligini himoya qilishda, qonunlarga rioya etish va jamiyat farovonligiga hissa qo‘shishda, o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini bilishda, ularni hurmat qilish va asrab-avaylashda. O‘z sohasida (o‘qish, fan, sport, harbiy xizmat, tadbirkorlik) halol va vijdonan mehnat qilib, mamlakat nomini dunyoga tanitishda. O‘z yurtini sevish bilan birga, boshqa millat va xalqlarning madaniyati va mustaqilligini hurmat qilishda (soxta va ashaddiy millatchilikdan farqli ravishda). Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mazkur jarayonning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Pedagog olim B.T.Ziyomuhammadovning ta’kidlashicha: “Vatanparvarlik tarbiyasi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi; u yoshlarning hissiy-emotsional sohasiga ta’sir ko‘rsatish, ularda milliy go‘zallik va faxr tuyg‘ularini uyg‘otish orqali amalga oshiriladi”.Vatanparvarlik tarbiyasida raqamli kontentning ta’sir imkoniyatlari raqamli kontent (videoroliklar, 3D virtual muzeylar, audio/podkastlar, interaktiv xaritalar va hujjatli-grafik animatsiyalar) ko‘rgazmalilik, ta’sirchanlik va tezkorlik xususiyati bilan ajralib turadi. Psixolog va pedagog olimlar tomonidan aniqlanishicha, vizual va interaktiv axborotni qabul qilish ko‘rsatkichi oddiy og‘zaki axborotga nisbatan 3-4 baravar yuqori. Xorijiy tadqiqotchi D. Bakkingem (David Buckingham) mediata’lim bo‘yicha shunday yozadi: «Zamonaviy yoshlar axborotni passiv qabul qiluvchilar emas, balki uni faol qayta ishlovchi va vizual timsollar orqali anglovchi vizual iste’molchilardir. Pedagogika ularning tilida-raqamli media tilida gaplashishi shart». Shu ma’noda, o‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagi raqamli kontent turlari yuqori samara beradi: 1. 3D virtual ekskursiyalar va muzeylar: Vatanimizning boy tarixiy va madaniy merosini (masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari, Tarixiy xotira muzeylari) sinfxonadan chiqmasdan o‘rganish imkonini beradi. Hujjatli va animatsion mediamateriallar: Buyuk ajdodlar (Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Jaloliddin Manguberdi va b.) hayoti hamda Vatan himoyachilarining jasorati haqidagi qisqa va taassurotli videoroliklar. 2. Interaktiv ta’lim platformalari va geymifikatsiya (“zerikarli yoki murakkab jarayonni o‘yin elementlari orqali qiziqarli va ishtiyoqli mashg‘ulotga aylantirish”usuli): Tarix, jug‘rofiya va milliy g‘oya fanlari bo‘yicha testlar, onlayn-kvest (internet va raqamli platformalar yordamida bilim, mantiq va zukkolikni sinovdan o‘tkazuvchi masofaviy logik o‘yin)lar hamda viktorinalar. 3. Ilmiy-metodik tavsiyalar va raqamli kontentni amaliyotga tatbiq etish. Raqamli kontent vatanparvarlik tarbiyasida kutilgan natijani berishi uchun u pedagogik jihatdan to‘g‘ri tizimlashtirilgan va maqsadli yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentni dars va darsdan tashqari jarayonlarga tatbiq etishda quyidagi metodik bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi: Motivatsion-hissiy bosqich: Dars boshida 2-3 daqiqalik ta’sirchan raqamli rolik yoki vizualizatsiya orqali o‘quvchilarda faxr va qiziqish tuyg‘usini uyg‘otish. Axborot-analtik bosqich: Manbalar, elektron hujjatlar va virtual ko‘rgazmalar bilan mustaqil va jamoaviy ishlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish. Refleksiv-amaliy bosqich: Olingan xulosalar asosida o‘quvchilarning o‘zlariga ham kichik raqamli loyihalar (taqdimotlar, infografikalar, video-esselar) tayyorlatish. Pedagogika fanlari doktori, professor N.A. Muslimov ta’kidlaganidek: “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonning maqsadiga aylanib qolmasligi kerak. U faqat pedagogik maqsadlarga erishishning, jumladan, barkamol shaxsni tarbiyalashning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi lozim”. Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida raqamli kontentdan unumli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish tizimli, bosqichma-bosqich va ko‘p tomonlama yondashuvni talab etadi. Bu jarayonni ham institutsional (pedagogik, huquqiy), ham amaliy (texnologik, metodik) darajada takomillashtirish mumkin. 1.Pedagogik va metodik mexanizmlarni takomillashtirish. Interaktiv va muammoli ta’lim texnologiyalarini joriy etish: Raqamli kontentni passiv o‘zlashtirishdan aktiv muhokamaga o‘tish. Masalan, dars va to‘garaklarda "Case-study" (vaziyatli tahlil) hamda "Debat" usullaridan foydalanib, tarmoqdagi muayyan ijtimoiy yoki ekologik muammoga bag‘ishlangan video/maqolalarni birgalikda tahlil qilish. Mediasavodxonlikni fanlararo integratsiya qilish: Mediasavodxonlik va raqamli gigiena elementlarini alohida fan sifatida emas, balki mavjud ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar (tarix, tarbiya, informatika, jamiyatshunoslik) tarkibiga kiritish. Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning): Yoshlarni raqamli kontentning shunchaki iste’molchisi emas, balki foydali kontent yaratuvchisi (kreator)ga aylantirish. Ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan qisqa videoroliklar, ma’rifiy infografikalar yoki podkastlar yaratish bo‘yicha tanlov va jamoaviy loyihalar tashkil etish. 2. Ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. Raqamli muhitda shaxsiy mas’uliyat va "Netiket" madaniyatini shakllantirish: Tarmoqda muloqot odobi, boshqalarning fikrini hurmat qilish, kiberbulling (onlayn

tahqirlash) va trollingga qarshi murosasiz munosabatni shakllantiruvchi treninglar o‘tkazish. Real va virtual ijtimoiylashuv muvozanatini ta’minlash: "Raqamli detoks" (Digital Detox) vaqtlarini belgilash ko‘nikmasini singdirish; raqamli kontent orqali olingan bilim va ko‘nikmalarni offlayn tadbirlarda jamoatchilik ishlari, volontyorlik, ilmiy to‘garaklar) amalda qo‘llashga yo‘naltirish. 3. Tashkiliy-texnologik va infratuzilmaviy mexanizmlar. Milliy ta’limiy va ma’rifiy kontent platformalarini (foydalanuvchilarning bilim darajasini oshirish, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy va madaniy savodxonligini yuksaltirishga qaratilgan raqamli manbalar (veb-saytlar, mobil ilovalar, media-portallar va ijtimoiy tarmoq kanallari majmui) rivojlantirish: Bunday platformalarning asosiy maqsadi - shunchaki ko‘ngilochar yoki axborot berish emas, balki insonga ta’limiy va tarbiyaviy qiymat (intellektual yuklama) ulashishdan iborat. Yoshlarning yosh xususiyatlariga va xalqaro standartlarga mos keluvchi, xavfsiz va jozibador milliy elektron resurslar, virtual muzeylar, onlayn laboratoriyalar va interaktiv platformalar tarmog‘ini kengaytirish. Axborot filtratsiyasi (bu ulkan axborot oqimidan foydalanuvchilar uchun zarur, foydali va ishonchli ma’lumotlarni ajratib olish hamda keraksiz, xaqqoniy bo‘lmagan yoki zararli (spam, kiberxavflar, feyk) kontentni to‘sish jarayonidir. Bugungi axborot xuruji davrida ushbu jarayon ham texnik usullar (algoritmlar va filtrlar), ham insonning intellektual qobiliyati (tanqidiy fikrlash) orqali amalga oshiriladi) va xavfsiz muhit yaratish: Bugungi kunda axborot filtratsiyasining asosiy darajalari quyidagicha ko‘rinishlarga ega. Texnik va dasturiy filtratsiya: Bunda Spam-filtrlar: Elektron pochtalarda keraksiz reklama va firibgarlik xatlarini avtomatik ravishda alohida jildga ajratadi. Qidiruv va ijtimoiy tarmoq algoritmlari: Foydalanuvchining qiziqishlariga mos keladigan kontentni ko‘rsatadi (masalan, *Personalized Filtering*). Ota-ona nazorati (Parental Control): Yosh bolalarni yoshiga mos kelmaydigan yoki nojo‘ya saytlardan himoyalaydi. Kiberxavfsizlik va tarmoq ekranlari (Firewall): Tarmoqqa kirayotgan ma’lumotlar paketini tahlil qilib, zararli dastur hamda kiberxatarlarni to‘sadi. Intellektual va shaxsiy filtratsiya (Axborot gigiyenasi): Bunda faktcheking (fact-checking): Ma’lumotning manbasini, muallifini va mantiqiy asosga ega ekanligini tekshirish. Tanqidiy fikrlash: Olingan xabarlarga ko‘r-ko‘rona ishonmasdan, ularning ortidagi maqsad va manipulyatsiya ehtimolini baholash. Raqamli gigiyena: Ijtimoiy tarmoqlardagi keraksiz, chalg‘ituvchi yoki salbiy axborot manbalaridan (kanallar va sahifalardan) voz kechish. Axborot filtratsiyasining ahamiyati uning afzalligida – bunda vaqt tejaladi – ya’ni keraksiz "axborot shovqini" (*information noise*) ichida chalg‘imay, faqat muhim bilimlarga e’tibor qaratishga yordam beradi. Ikkinchi afzalligi ruhshunoslik va ruhiy salomatlik – bunda salbiy va vahimali xabarlar (*doomscrolling*) bosimidan inson psixikasini asraydi. Uchunchi afzalligi kiberxavfsizlik – bunda shaxsiy ma’lumotlar, parollar va moliyaviy resurslarni firibgarlardan himoya qiladi. To‘rtinchi afzalligi to‘g‘ri qaror qabul qiladi - ya’ni

chalg‘ituvchi va yolg‘on ma’lumotlarga emas, faqat tekshirilgan va xolis faktlarga tayanib xulosa chiqarish imkonini beradi. Ta’lim muassasalarida va oilalarda yoshlarni destruktiv, zo‘ravonlik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi kontentlardan himoya qiluvchi smart-filtrlash va ota-ona nazorati (Parental Control) tizimlaridan unumli foydalanishni ommalashtirish. 4. Institutlararo hamkorlik (Oila-Maktab/OTM-Jamiyat). Oila va ota-onalar. Ota-onalarning raqamli savodxonligini oshirish, farzandlari bilan raqamli kontentni birgalikda ko‘rish va muhokama qilish madaniyatini shakllantirish. Pedagog va murabbiylar.O‘qituvchilarning zamonaviy raqamli media vositalaridan va pedagogik dasturiy majmualardan foydalanish malakasini muntazam oshirib borish. OAV va Media ijodkorlar. Yoshlar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan sifatli, tarbiyaviy va ilmiy-ommabop mediakontent hajmini va jozibadorligini oshirish. Ushbu mexanizmlarning kompleks ravishda amalga oshirilishi yoshlarning raqamli dunyoda o‘zini anglashi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: Ijtimoiylashuv davrida o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda raqamli kontentlardan foydalanish - davr talabi va ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Mantiqan mukammal, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilgan hamda vizual jozibador raqamli resurslarni yaratish yoshlarning milliy o‘zlikni anglashi va Vatanga sadoqat ruhida kamol topishida muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining · P Q - 1 8 3-sonli “Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2025 yil 15 may
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Ziyomuhammadov B.T. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2006.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Sano-standart”, 2015.
5. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.